



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**No1**  
MAXSUS SON



## BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### **Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

### **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### **Muharrir:**

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

*Elektron nashr. 25 sahifa.  
2026-yil yanvar*

### **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukaramova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

EKSPORT VA IMPORT OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH: TAHLIL VA AUDIT .....	10
<b>Urinboyev Bexruz Zoir o'g'li, Misirov Asliddin Mamasobirovich</b>	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALARNING ROLI .....	15
<b>Jabborov Muhammad Sanjarovich, Djurayeva Dilnoza Davron qizi, Song Jichung</b>	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH OMILLARI VA MAKROIQTISODIY TA'SIRI.....	21
<b>Xoliqulova Ra'no Sherali qizi, Berdiyev Nazirjon Abduvoseyevich</b>	





The findings demonstrate that digitalization not only improves economic efficiency but also serves as a key catalyst for green economic transformation by elevating sustainable development indicators to a qualitatively new level. This study provides a robust statistical and analytical foundation for strengthening ecological sustainability through digital technologies and establishes a solid methodological platform for future research in this field.

**Key words:** green economy, digitalization, ecological innovations, carbon footprint, renewable energy, digital monitoring, sustainable development, green investments, environmental efficiency, macroeconomic impact.

**Аннотация:** В данной статье представлен комплексный анализ ключевых факторов развития, экономических механизмов и макроэкономических эффектов зелёной экономики, формирующейся в Узбекистане в условиях ускоренной цифровизации. В исследовании раскрывается роль цифровых технологий — интеллектуальных энергетических систем, экологического мониторинга на основе IoT, цифровых моделей отслеживания углеродного следа и «зелёной» дата-инфраструктуры — в формировании мультипликативного эффекта в различных отраслях национальной экономики.

Рассматриваются возможности повышения эффективности рынка возобновляемой энергетики посредством цифровых инструментов управления, стратегии внедрения экологических инноваций, а также новые модели низкоуглеродного развития в рамках государственной политики. Кроме того, на основе эмпирических данных обосновано прямое и косвенное влияние цифрового экологического учёта, потоков зелёных инвестиций и механизмов сокращения углеродного следа на макроэкономические показатели Узбекистана.

Результаты исследования показывают, что цифровизация не только повышает общую экономическую эффективность, но и выступает ключевым катализатором зелёной экономической трансформации, выводя показатели устойчивого развития на качественно новый уровень. Настоящая работа формирует прочную статистическую и аналитическую базу для обеспечения экологической устойчивости с использованием цифровых технологий и создаёт надёжную методологическую платформу для дальнейших научных исследований в данной сфере.

**Ключевые слова:** зелёная экономика, цифровизация, экологические инновации, углеродный след, возобновляемая энергия, цифровой мониторинг, устойчивое развитие, зелёные инвестиции, экологическая эффективность, макроэкономическое влияние.

## KIRISH

So'nggi yillarda dunyo miqyosida raqamlashtirish jarayonlarining jadal sur'atlarda rivojlanishi iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga chuqur kirib borib, ishlab chiqarish samaradorligi hamda resurslardan foydalanish mexanizmlarini tubdan takomillashtirdi. Mazkur jarayonlar fonida yashil iqtisodiyot konsepsiyasi global barqaror rivojlanishning muhim strategik yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekiston ham ushbu tendensiyalar ta'sirida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash va uglerod izini qisqartirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni izchil amalga oshirmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarni ekologik boshqaruv tizimlari, qayta tiklanuvchi energiya bozori hamda uglerod chiqindilarini monitoring qilish jarayonlariga joriy etish yashil iqtisodiyot rivojlanishining yangi bosqichini shakllantirmoqda.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida yashil iqtisodiyotga o'tish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Jumladan, Yevropa Ittifoqi 2050-yilga borib "nol uglerod emissiyasi"ga erishishni strategik maqsad sifatida belgilagan bo'lsa, Xitoyda qayta tiklanuvchi energiya tarmoqlariga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi barqaror ravishda oshib bormoqda. AQShda ham qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish jarayoni izchil davom etmoqda [2].

O'zbekiston Respublikasida ushbu yo'nalishdagi islohotlar normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlanmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04-10-2019-yildagi "2019–2030-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotiga o'tish strategiyasini ishlab chiqish to'g'risida"gi 4477-sonli qarori<sup>1</sup> hamda 09-09-2022-yildagi "Energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 220-sonli farmoni<sup>2</sup> ushbu jarayonning muhim huquqiy asosini tashkil etadi [1].

Shu bilan birga, bugungi global muammolar, jumladan iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, suv resurslarining tanqisligi va atrof-muhit ifloslanishining ortib borishi yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son <https://lex.uz/docs/-4539502>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09.09.2022 yildagi PF-220-son <https://lex.uz/uz/docs/-6189000>



yanada jadallashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni ekologik muvozanat bilan uyg'unlashtirish masalasi mintaqaviy va milliy darajada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

X.M. Abdurahmonov va I.M. Jalilov tomonidan tayyorlangan "Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish" nomli monografiyada O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotga o'tishning zarurati, asosiy bosqichlari hamda mahalliy resurslardan samarali foydalanish yo'llari keng qamrovda tahlil etilgan [3; 4].

A.V. Vahobovning ilmiy ishlarida xalqaro tajriba hamda mamlakatimiz miqyosida yashil iqtisodiyot rivojlanishining bosqichlari, hozirgi holati va istiqbollari tizimli ravishda yoritib berilgan [5].

Shuningdek, Kaprotti va Beyli (2014) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yashil iqtisodiyot qashshoqlikni qisqartirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash, iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda resurslardan adolatli foydalanish orqali barqaror rivojlanishga erishishni nazarda tutishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [6].

"Yashil iqtisodiyot" atamasi ilk bor 1989-yilda Buyuk Britaniya hukumati uchun ekologiya iqtisodchilari guruhi tomonidan tayyorlangan "Yashil iqtisod rejas" (Pearce, Markandya va Barbier, 1989) nomli hisobotda qo'llanilgan. Ushbu konsepsiya XX asr oxirida sanoat va iqtisodiyotning jadal rivojlanishi hamda aholi sonining ortishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarga ilmiy va amaliy yechim sifatida shakllangan [7].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot O'zbekistonda raqamlashtirish sharoitida yashil iqtisodiyotning rivojlanish omillari hamda uning makroiqtisodiy ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida empirik va analitik usullar uyg'un holda qo'llanildi. Ma'lumotlar rasmiy statistik manbalar asosida shakllantirilib, diagrammalar va grafiklar yordamida tizimlashtirildi.

Tahlil jarayonida kuzatuv, taqqoslash va kompleks tahlil usullaridan foydalanildi. Ushbu metodologik yondashuv yashil iqtisodiyot rivojlanish sur'atlarini aniqlash, unga ta'sir etuvchi asosiy omillarni baholash hamda ularning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish imkonini berdi. Olingan natijalar grafik va diagrammalar orqali vizual tarzda mustahkamlanib, tadqiqot xulosalarining aniqligi va ishonchliligini oshirdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida sanoatda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish mexanizmlarini tahlil qilish jarayonida bir qator muhim jihatlar aniqlandi. Avvalo, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga o'tish sanoat korxonalarini uchun ekologik barqarorlik bilan bir qatorda iqtisodiy foyda ham keltirishi ilmiy jihatdan asoslandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirishga hamda uglerod chiqindilarini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi. Bu esa sanoat tarmoqlarining ekologik izini kamaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, chiqindilarni qayta ishlash va resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarining ahamiyati alohida ta'kidlandi. Sanoat chiqindilaridan ikkilamchi xomashyo sifatida foydalanish iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga ishlab chiqarish jarayonlarini yanada optimallashtirish imkonini beradi. Ushbu jarayonda davlat tomonidan taqdim etilayotgan subsidiyalar, moliyaviy rag'batlantiruvchi mexanizmlar hamda ekologik sertifikatlash tizimlarining joriy etilishi muhim qo'llab-quvvatlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sanoatda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish faqat texnologik yangilanishlar bilan cheklanmay, balki korxonalar va ularning xodimlari tomonidan ekologik madaniyat hamda ijtimoiy mas'uliyatni oshirishni ham taqozo etadi.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari sanoatda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida muhokama talab etadigan jihatlar mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish dastlabki investitsiya xarajatlarini talab qilishi mumkinligi qayd etilgan bo'lsa-da, uzoq muddatda ushbu texnologiyalar ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishi va korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishi isbotlanmoqda. Chiqindilarni qayta ishlash masalasida ham texnologik imkoniyatlar va moliyaviy resurslarga bog'liq cheklovlar mavjud bo'lishiga qaramay, ilg'or tajribalar ushbu yo'nalishning yuqori iqtisodiy salohiyatga egaligini tasdiqlaydi.

Ekologik sertifikatlash va davlat imtiyozlari borasida bildirilgan turli qarashlar jarayonni yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi. Umuman olganda, sanoatni barqaror rivojlantirish uchun ekologik talablarga mos ishlab chiqarishni kengaytirish muhim hisoblanadi va ushbu yo'nalish texnologik innovatsiyalar, investitsiyalarni jalb etish hamda malakali kadrlar salohiyati bilan uzviy bog'liqdir (1-jadval).



## 1-jadval. Sanoatda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha ayrim mamlakatlar tajribasi

Mamlakat	Asosiy yo'nalishlar	Qonunchilik va rag'batlantirish mexanizmlari	Erishilgan natijalar
Germaniya	Energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish	Yashil sertifikatlash tizimi, soliq imtiyozlari	Uglerod chiqindilarini taxminan 30 % ga qisqartirish
Janubiy Koreya	Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik innovatsiyalar	Davlat subsidiyalari, maxsus milliy dasturlar	Uglerod chiqindilarini taxminan 30 % ga kamaytirish
O'zbekiston	Qayta tiklanuvchi energiya, ekologik barqarorlikni ta'minlash	Qonunchilikni takomillashtirish, investitsiyalarni jalb etish	Uglerod chiqindilarini qisqartirish bo'yicha izchil ijobiy natijalar

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda raqamlashtirish jarayonlari yashil iqtisodiyot rivojlanishining muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Energetika va ekologik monitoring sohasida joriy etilayotgan raqamli texnologiyalar resurslardan foydalanish samaradorligini oshirib, uglerod chiqindilarini qisqartirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Aqlli energiya tizimlari, raqamli hisoblagichlar, GIS va IoT asosidagi monitoring platformalari ekologik holatni aniq va tezkor nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Bundan tashqari, raqamli moliyaviy platformalar hamda ochiq ma'lumotlar tizimlarining rivojlanishi yashil investitsiyalar oqimini faollashtirib, ekologik loyihalarning shaffofligi va ishonchligini oshirmoqda. Tahlil natijalariga ko'ra, raqamlashtirish iqtisodiy xarajatlarni optimallashtirish, energiya tejamkorligini ta'minlash va ekologik xavflarni kamaytirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, raqamli texnologiyalarni yashil iqtisodiyotga integratsiya qilish O'zbekistonda barqaror rivojlanishning yangi bosqichini shakllantirib, ekologik samaradorlikning oshishiga, investitsion faollikning kuchayishiga hamda iqtisodiyotning sifat jihatidan yangilanishiga zamin yaratmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil iqtisodiyot iqtisodiy taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash, yalpi ichki mahsulot hajmining oshishi, mamlakat daromadlarining ko'payishi hamda aholini ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va qabul qilinayotgan strategik qarorlar mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Yashil makon" kabi dasturlar orqali ekologik muvozanatni saqlash, resurslardan samarali foydalanish, aholi salomatligini muhofaza qilish hamda yangi iqtisodiy imkoniyatlarni shakllantirish borasida sezilarli ijobiy natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston sharoitida raqamlashtirish jarayonlari yashil iqtisodiyotning shakllanishi va barqaror rivojlanishiga kuchli turtki bermoqda.

Raqamli texnologiyalar resurslardan samarali foydalanish, energiya tejamkorligini oshirish, ekologik monitoring tizimlarini avtomatlashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish orqali iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida "yashil transformatsiya" jarayonlarini jadallashtirmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli infratuzilmaning kengayishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga investitsiyalar hajmining ortishi hamda ekologik boshqaruv tizimlarining modernizatsiyasi mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini mustahkamlaydi, yalpi ichki mahsulot o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va yangi "yashil" ish o'rinlarining yaratilishiga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2019-10-20-yildagi "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son qarori // O'zbekiston Respublikasi Huquqiy axborot portali. — [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
- Chorsaidova, M. A. q., & Mirzakulova, R. M. (2025). Yashil iqtisodiyotdagi global tendensiyalar va innovatsiyalar // ACUMEN: International Journal of Multidisciplinary Research, 2(6), 16–21. Retrieved from <https://inilibrary.uz/index.php/aijmr/article/view/104871>
- Abduraxmonov, X. M., & Jalilov, I. M. Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. — 208 b.
- Jalilov, I. M. (2022). The Role of Regional Factors in Transition to Green Economy in Uzbekistan // Central Asian Economic Review, No. 2, 75–84-betlar.
- Vahobov, A. V. Yashil iqtisodiyot. — Toshkent, 2020.
- Turg'unov, J. A. (2023). Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari // Qo'qon universiteti xabarnomasi, 9(9), 85–87. <https://doi.org/10.54613/ku.v9i9.841>
- Salaxiddinova, Z. (2024). Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini "yashil iqtisodiyot" asosida tashkil etish samaradorligini tadqiq qilishning nazariy asoslari // Qo'qon universiteti xabarnomasi, 13, 61–63. <https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1023>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

### 1-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>